



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



QORI NIYOZIY NOMIDAGI
TARBIYA PEDAGOGIKASI
MILLIY INSTITUTI



ScienceInnovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

TA'LIM-TARBIYANING OPTIMAL MODELLARI: XALQARO HAMDA TARIXIY TAJRIBALAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



2025-YIL
30-31-OKTABR

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

**“TA’LIM-TARBIYANING OPTIMAL MODELLARI:
XALQARO HAMDA TARIXIY TAJRIBALAR,
MUAMMOLAR, YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
30-31-OKTABR, 2025-YIL**

**OPTIMAL MODELS OF EDUCATION: INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
“INTERNATIONAL AND HISTORICAL EXPERIENCE,
PROBLEMS, SOLUTIONS”
OCTOBER 30-31, 2025**

**ОПТИМАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ ОБРАЗОВАНИЯ:
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ “МЕЖДУНАРОДНЫЙ И
ИСТОРИЧЕСКИЙ ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ”
30-31 ОКТЯБРЯ 2025 ГОДА**

Toshkent – 2025

Ta’lim-tarbiyaning optimal modellari: xalqaro hamda tarixiy tajribalar, muammolar, yechimlar mabzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (2025-yil 30-31-oktabr) – T.: Science and Innovation – 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Bakhtiyor Rustamov, Gulirano Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Zulaykho Khakimova, Iqboloy Sobirova, Asila Khaydaraliyeva

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.G.Safarova

Tahrir hay’ati a’zolari

<i>X.I.Ibraimov</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi, akademik</i>
<i>R.G.Safarova</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
<i>H.M.Tojiboyeva</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
<i>R.M.Medetova</i>	<i>Pedagogika fanlari doktori, professor</i>
<i>N. Masharipova</i>	<i>Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim</i>
<i>N.Ch.Rustamov</i>	<i>Qori Niyoziy nomidagi TPMI katta ilmiy xodimi</i>

© Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

- O'qituvchilarning malaka oshirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish;
- Turli mamlakatlardagi ta'lim tajribalarini taqqoslab, eng yahshi amaliyotlarni ommalashtirish

TALIS dasturi doirasida o'tkaziladigan so'rovnomalar, kuzatuvlar va tahlillar natijasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha muhim ma'lumotlar olinadi.

- O'qituvchilarning pedagogik faoliyatga bo'lgan munosabati;
- Ularning dars jarayonida qo'llaydigan metodlari;
- O'qituvchilarning bilim sifatini oshirishdagi yondashuvlar
- O'qituvchilarning malaka oshirishda duch kelayotgan muammolari
- Maktab rahbariyatining pedagogik jarayondagi roli

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yangilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Xalqaro baholash dasturlari orasida o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini, dars berish jarayonidagi yondashuvlarni va malaka oshirish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishi bilan ajralib turadi. Mazkur dastur orqali turli mamlakatlarda o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiya darajasi, ta'lim dasturiga innovatsiyalarni tatbiq etish holati, shuningdek, maktab rahbariyatining qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganiladi.

TALIS natijalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqori ta'lim natijalariga erishgan davlatlarda o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga muntazam e'tibor qaratiladi. Masalan, Finlandiya, Singapur va Estoniya kabi mamlakatlarda pedagoglarning malakasini oshirish majburiy va uzluksiz jarayon sifatida yo'lga qo'yilgan. Natijada, ushbu davlatlarda o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasi yuqori darajada shakllangan, ta'lim sifati esa xalqaro reytinglarda yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda.

Milliy ta'lim tizimimiz rivojlanishida TALIS dasturida qayd etilgan mezonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan:

- o'qituvchilarning malaka oshirish kurslarida ishtiroki- hozirda respublikada malaka oshirish institutlari faoliyat yuritmoqda. Ammo TALIS mezonlariga ko'ra, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarning ehtiyojlariga mos, shaxsga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqarish zarur;

- innovatsion metodlarni qo'llash-ko'plab oliy ta'lim muassasalarida interfaol metodlar tatbiq qilinmoqda. Biroq, TALIS tajribasiga asoslanib qaraganda, dars jarayonida zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish darajasi hali yetarli emas;

- o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi - TALIS natijalarida muvaffaqiyatli davlatlarda pedagog kasbi yuqori obro'ga ega ekanligi ta'kidlanadi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda o'qituvchilarning maqomini oshirish, moddiy rag'batlantirishga oid huquqiy asoslar yaratilmoqda, ammo kasbga bo'lgan ijtimoiy e'tiborni yanada kuchaytirish talab e'tiladi.

Xulosa qilib aytganda TALIS dasturida qayd etilgan mezonlar O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'unlikda qo'llanilsa, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasi yanada rivojlanadi. TALIS natijalariga asoslangan holda bo'lajak o'qituvchilar kompetentsiyasini rivojlantirish istiqbollari quyidagilardan iborat:

- Kompetentsiyaga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqish
- Uzluksiz pedagogik amaliyotni joriy etish
- Innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish

- Refleksiv va ijodiy kompetentsiyalarni rivojlantirish
- Kasbiy motivatsiyani rag'batlantirish

Bu yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi bo'lajak o'qituvchilarning zamonaviy kompetentsiyasini shakllantirishga, milliy ta'lim tizimini xalqaro mezonlarga mos ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-637, 23.09.2020y. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" gi 997-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli farmoni. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari onlayn milliy bazasi
4. Program for international student assessment. <https://www.oecd.org/pisa/>
4. Progress in international reading literacy study. <https://pirls.bc.edu/>
5. Trend in international Mathematics and Science study. <https://timss.bc.edu/>
6. Teaching and learning international survey. <https://www.oecd.org/education/talis/>
7. Andres Shlyaxer. Jaxon miqyosidagi ta'lim. - Toshkent: "Zamin nashr", 2022
8. Adams, R. (2022), Country comparisons in PISA: The Impact of Item Selections
9. Griffin P., and E. Care (2015). Assessment and Teaching of 21st Century Skills, Springer Dordrecht, New York.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI O'QUVCHILARDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM- TARBIYANING SAMARALI MODELLARI HAMDA XALQARO VA TARIXIY-MILLIY TAJRIBALAR INTEGRATSIYASI

Qayumova Shoxsanam To'liq qizi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Guliston Davlat Universiteti doktoranti (DSc)

Postal code Guliston 120204, Uzbekistan

Email: shoxsanamkayumova0523@gmail.com

[ORCID ID](https://orcid.org/0009-0007-8909-550X) 0009-0007-8909-550X

***Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida samarali modellarni qo'llash, ularni xalqaro tajribalar va milliy-tarixiy meros bilan uyg'unlashtirishning afzalliklari ochib beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalar asosida ta'lim*

tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini kuchaytirish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, metodika, xalqaro tajriba, milliy meros, ta'lim-tarbiya modeli.*

Bugungi globalashuv davrida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS) natijalarini yaxshilash ustuvor vazifa sifatida belgilangan[1]. Shuningdek, 2019-yil 29-apreldagi PQ-4310-son qaror “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”[2] hamda 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qaror “Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” hujjatlarida boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish[3], o'qituvchilar metodikasini yangilash va xalqaro tajribalarni joriy etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda ta'lim-tarbiya jarayonining samarali modellari, xalqaro baholash tizimlari hamda milliy merosni uyg'unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning **o'qish savodxonligini rivojlantirish** masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Chunki funksional savodxonlik – bu bilimlarni amalda qo'llash, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida yoshlarning **ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalar ko'rsatish** zarurligini bir necha bor ta'kidlagan. So'nggi yillarda respublikamizda o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim ishlar amalga oshirilmoqda: 2021-yilda O'zbekiston ilk bor PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) [7] dasturida qatnashdi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro mezonlar asosida baholash imkonini berdi. 2022-yilda esa PISA (Programme for International Student Assessment) [6] dasturida ham ishtirok etdi; “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2026”da xalqaro baholash dasturlaridagi ko'rsatkichlarni oshirish alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Shuningdek, “Eng yaxshi kitobxon” tanlovlari, “Bir million kitob” loyihasi, maktab kutubxonalarini zamonaviy adabiyotlar bilan boyitish ishlari olib borilmoqda. Boshlang'ich sinflar uchun yangi avlod darsliklari ishlab chiqildi, unda o'qish, matnni tahlil qilish, savol-javoblar orqali o'quvchilarni faol fikrlashga yo'naltiruvchi topshiriqlar kiritildi.

Bugungi kunda xalqaro baholash dasturlari o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim indikator sifatida qabul qilinmoqda: **PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study)** – 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholaydi[7]. O'zbekistonning ushbu dasturdagi ishtiroki ta'lim tizimida kuchli va zaif jihatlarni aniqlash imkonini berdi. **PISA (Programme for International Student Assessment)** – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonligini o'lchaydi[6]. Bu dastur natijalari mamlakatning ta'lim sifati va kadrlar tayyorlash samaradorligini ko'rsatadi. **EGRA (Early Grade Reading Assessment)** – boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish tezligi, tushunishi va tovushlarni ajrata olish ko'nikmalarini baholaydi[6]. O'zbekistonda ham ushbu baholash mexanizmlaridan foydalanilmoqda. **TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study)** –

asosan matematika va tabiiy fanlarga qaratilgan bo'lsa-da, o'qish savodxonligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan topshiriqlarni ham o'z ichiga oladi[7]. Ushbu dasturlarda muvaffaqiyat qozonish uchun bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda milliy va xalqaro tajribalarni integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

PIRLS tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga berilgan ta'rif IEA xalqaro assotsiatsiyasining 2001-yildagi tadqiqotiga asoslangan bo'lib, unda o'qish savodxonligi "tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyati" deb izohlangan. Har bir o'tkaziladigan tadqiqotda o'qish savodxonligiga nisbatan yuqorida keltirib o'tilgan ta'rif barcha yoshdagi o'quvchilar va keng turdagi yozma til shakllariga nisbatan qo'llanilishi mumkinligini, ammo bugungi texnologik jihatdan rivojlangan dunyoda soni tobora oshib borayotgan qator matnli ma'lumotlarni qabul qilish, maktabda va kundalik hayotda o'qib tushunish qobiliyatini qanchalik muhim ekanini teran his etadigan yosh o'quvchilarning o'qish ko'nikmasi va tajribalarining o'ziga xos jihatlarini yoritib berishni ta'minlash maqsadida qayta ishlab chiqilishini taqazo etadi. Endilikda, PIRLS xalqaro tadqiqoti tomonidan o'qish savodxonligiga nisbatan qo'llanilgan ta'rif quyidagicha: O'qish savodxonligi tushunish va shaxs tomonidan qadrlanadigan yoki jamiyat tomonidan talab etiladigan barcha yozma til shakllaridan foydalana olish qobiliyatidir. O'quvchi turli shakldagi matnlardan mazmun hosil qiladi. Ular o'rganish, maktab va kundalik hayotda o'zlari kabi boshqa o'quvchilar jamoasiga qo'shilish va vaqtini samarali o'tkazish uchun o'qiydilar. O'qish savodxonligiga nisbatan bildirilgan bunday yondashuv konstruktiv va interfaol jarayon sifatida o'qish savodxonligiga oid turli nazariyalarni aks ettiradi. Matn mazmuni muayyan o'qish tarzi asosida o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali hosil qilinadi. O'quvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilg'ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o'qish strategiyasidan xabardor va o'qish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. O'qish jarayonining boshlanishi, o'rtasi va oxirida o'quvchi til ko'nikmalarining, kognitiv va metakognitiv strategiyalar hamda mazmun shakllantirishda birlamchi bilim va ko'nikmalar majmuasidan foydalanadi. O'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida **kognitiv va metakognitiv strategiyalar** muhim metodik vositalardan hisoblanadi. Kognitiv strategiyalar o'quvchining ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash va yodda saqlash qobiliyatini kuchaytirsa, metakognitiv strategiyalar uning o'z o'qish jarayonini ongli ravishda rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kognitiv strategiyalar asosan matn bilan bevosita ishlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: **Takrorlash (Rehearsal)**: matnni qayta o'qish, muhim so'zlarni takrorlash orqali eslab qolish; **Tashkillashtirish (Organization)**: matndan reja tuzish, jadval va klaster yaratish; **Izohlash (Elaboration)**: yangi ma'lumotni mavjud bilim bilan bog'lash, shaxsiy tajriba asosida misollar keltirish; **Vizualizatsiya (Imagery)**: matnni grafik yoki tasviriy vositalar yordamida tasavvur qilish. Bu strategiyalar o'quvchilarni matnni anglash, asosiy g'oyani ajratib olish va mazmunini yodda saqlashga o'rgatadi.

Metakognitiv strategiyalar esa o'quvchining o'z o'quv faoliyatini boshqarish va nazorat qilish jarayoniga xizmat qiladi. Ularning asosiy turlari quyidagilar: **Rejalashtirish**: o'qishga kirishishdan avval maqsadni belgilash va o'qish usullarini tanlash; **Monitoring**: o'qish davomida tushunmagan qismlarni aniqlash, zarurat tug'ilganda qayta o'qish; **Baholash**: o'qib bo'lgach, matnni qayta ko'rib chiqish va asosiy g'oyani to'g'ri anglash darajasini baholash; **O'z-o'zini savolga tutish**: "Men ushbu matndan nima bildim?", "Yana qaysi savollarga javob

olishim kerak?" kabi savollar berish. Bu strategiyalar o'quvchilarni tanqidiy fikrlash, mustaqil o'qish va o'z bilim jarayonini boshqarishga o'rgatadi.

Bundan tashqari, o'qish muhitini yuzaga keltiradigan sharoit o'quvchini o'qishga rag'batlantirish va qiziqtirish orqali matn mazmunini shakllantirishga yordamlashadi, ammo sharoit matn mazmunini tushunish imkonini bermaydigan muayyan talablarni yuzaga keltirishi ham mumkin. O'quvchi o'zini o'rab turgan dunyo va o'zi haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun u turli matnlarni o'qib o'rganishi mumkin. Har bir turdagi matn o'quvchiga matnni talqin qilishiga imkon beruvchi sodda shakllar va qoidalardan iboratdir. Har qanday berilgan matn turi ko'plab shakllar va shakllar jamlanmasi (kombinatsiyasi)ga ega bo'lishi mumkin. Ular orasida an'anaviy yozma shakllar, masalan, kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, internet va veb sahifalari orqali aloqa qilishning ko'plab usullarini o'z ichiga olgan raqamli shakllar mavjud bo'lib, bunda matn ko'pincha turli multimedia formatlari bilan birlashtirilgan. PIRLS qamrov doirasi ham maktabda ham maktabdan tashqarida o'quvchilarning matnni o'qib tushunishlaridan ko'zlangan ikki maqsadga e'tibor qaratadi. Ular badiiy tajriba orttirish va axborotni olish va undan foydalanishdan iborat. Bundan tashqari, PIRLS baholash tadqiqoti yuqorida aytib o'tilgan ikki maqsad bilan uyg'unlashgan to'rtta tushunish jarayonini birlashtiradi. Bu to'rt jarayonlar diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish; to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish; kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash; g'oyalar va ma'lumotni talqin qilish va uyg'unlashtirishni o'z ichiga oladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, o'qish savodxonligidan ko'zlangan asosiy maqsad va tushunish jarayoni bir-birlaridan yoki o'quvchilar yashab, o'rganadigan vaziyatdan ayro holda mavjud bo'lmaydi.

1-jadval:

PIRLS tadqiqotida o'qish savodxonligidan ko'zlangan maqsad va tushunish jarayoni

O'qishdan ko'zlangan maqsad
Badiiy tajriba orttirish
Axborotni olish va undan foydalanish
Tushunish jarayoni
Diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotni topish
To'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish
G'oyalar va ma'lumotlarni talqin qilish va uyg'unlashtirish
Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari e'tibor berishi lozim bo'lgan jihatlariga to'xtalib o'tamiz. *O'qishdan ko'zlangan maqsadni shakllantirish.* PIRLS tadqiqotida o'quvchining o'qishdan ko'zlangan maqsadi ikki yo'nalishda baholanadi: Badiiy tajriba orttirish – ertak, hikoya, she'r kabi badiiy matnlarni o'qish orqali o'quvchilar estetik zavq olishi, obrazlarni his etishi va ma'naviy dunyosini boyitishi kerak. O'qituvchi dars jarayonida badiiy matnlarni his etish, obrazlar tahlili, qahramonlarning xatti-harakatiga munosabat bildirishga yo'naltirishi zarur. Axborotni olish va undan foydalanish – ilmiy-ommabop, ensiklopedik yoki informatsion matnlarni o'qish orqali o'quvchilar faktlarni o'zlashtirishi, ulardan amaliy faoliyatida foydalanishni o'rganishi kerak. O'qituvchi bolalarga matndan muhim ma'lumotlarni ajratish, ularni kundalik hayot bilan bog'lash imkoniyatini yaratishi lozim. Demak, bo'lajak o'qituvchilar darsda ham badiiy, ham axborotli matnlar bilan ishlashni uyg'unlashtirishi zarur. *Tushunish jarayoniga yo'naltirish.* PIRLS mezonlari bo'yicha o'quvchilarda o'qish tushunish jarayonining

to‘rt bosqichi rivojlantirilishi kerak. O‘qituvchi ushbu jarayonlarga alohida e‘tibor qaratishi lozim: Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma‘lumotni topish: O‘quvchilar matndan aniq fakt yoki detalni topishni o‘rganadi. O‘qituvchi savollarni “Kim?”, “Qachon?”, “Qayerda?” kabi aniqlikka yo‘naltiruvchi shaklda berishi zarur. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish: O‘quvchilar matndan ko‘rinib turgan asosiy g‘oyani anglaydi. O‘qituvchi bolalarga matndan keyingi voqeani taxmin qilish, qisqa xulosa tuzish topshiriqlarini beradi. G‘oyalar va ma‘lumotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish: O‘quvchilar matndagi turli ma‘lumotlarni solishtiradi, umumlashtiradi va yangi xulosa chiqaradi. O‘qituvchi bolalarni matn mazmunini shaxsiy tajriba bilan bog‘lash, muqobil fikr bildirishga rag‘batlantiradi. Kontent, til va matn elementlarini tekshirish va baholash: O‘quvchilar matn sifatini, til uslubini, muallif g‘oyasini tanqidiy baholay oladi. O‘qituvchi bolalarni qahramonlarga baho berishga, matndagi til vositalarini ajratib ko‘rsatishga o‘rgatadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholashda nafaqat matnni o‘qish tezligi yoki hajmini, balki **matnni tushunish darajasini** ham chuqur o‘rganadi. Bu jarayon ikki asosiy yo‘nalishga qaratilgan:

1. **O‘qishdan ko‘zlangan maqsadlar** – badiiy tajriba orttirish va axborotni olish;
2. **Tushunish jarayonlari** – diqqatni jamlash, xulosa chiqarish, g‘oyalarni talqin qilish hamda matn elementlarini baholash.

Mazkur mezonlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik jihatdan juda muhim ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi. Chunki o‘qituvchi dars jarayonida **o‘quvchini matndan faqat faktlarni yodlashga emas, balki uni tahlil qilish, talqin etish va tanqidiy baholashga yo‘naltirishi zarur**. Quyidagi jadvalda PIRLS mezonlari asosida o‘qituvchining vazifalari, o‘quvchidan kutiladigan natijalar va qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metodlar yoritilgan.

2-jadval.

PIRLS tadqiqoti mezonlari asosida o‘quvchilarni o‘qishga yo‘naltirish strategiyalari

PIRLS mezonlari	O‘qituvchining vazifalari	O‘quvchidan kutiladigan natijalar	Metod va texnologiyalar
Badiiy tajriba orttirish	O‘quvchilarda badiiy asarlardan zavq olish, obrazlarni tahlil qilish	O‘quvchi matndan estetik zavq oladi, qahramonlarga baho beradi	Ifodali o‘qish, rolli o‘yin, dramatizatsiya
Axborotni olish va foydalanish	Faktlarni ajratish, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalanishga o‘rgatish	O‘quvchi matndan zarur ma‘lumot topadi va uni amalda qo‘llaydi	Klaster, jadval tuzish, izohli lug‘at
Diqqatni jamlash va ma‘lumotni topish	Aniq faktlarga oid savollar berish	O‘quvchi matndan “Kim? Qayerda? Qachon?” kabi savollarga javob topadi	INSERT, savol-javob usuli
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish	Asosiy g‘oyani chiqarish va taxmin qilishga yo‘naltirish	O‘quvchi matndan asosiy fikrni anglaydi va qisqa xulosa tuzadi	Konseptual xarita, mantiqiy zanjir
G‘oyalarni talqin qilish va	Matn mazmunini shaxsiy tajriba bilan bog‘lash	O‘quvchi o‘qiganini hayotiy misollar bilan	Munozara, guruhii ish, “Venn

PIRLS mezonlari	O'qituvchining vazifalari	O'quvchidan kutiladigan natijalar	Metod va texnologiyalar
uyg'unlashtirish		izohlaydi	diagrammasi"
Kontent, til va matnni baholash	Til vositalari va matn uslubini tahlil qilish	O'quvchi matn sifatini tanqidiy baholaydi, muallif g'oyasini tushunadi	Baholash jadvali, debat, esse yozish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayoni faqat matnni o'qitish bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu jarayon bosqichma-bosqich metodik yondashuvni talab qiladi: avval o'quvchi matndan aniq faktlarni topadi, keyin xulosa chiqaradi, so'ngra o'z tajribasi bilan bog'lab talqin qiladi va yakunda matnga tanqidiy baho beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun eng muhim vazifa – dars jarayonida o'quvchilarni ana shu to'rt pog'onali tushunish zanjiri bo'ylab yetaklay olishdir. Shuningdek, badiiy va axborotli matnlarni uyg'un qo'llash, savollar tizimi orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va tanqidiy tahlil ko'nikmasini shakllantirish o'qish savodxonligini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir.

Ma'lumki, o'qish savodxonligi insonlarning o'qishdan ko'zlagan maqsadlari bilan bevosita bog'liqdir. Masalaga yanada kengroq yondashadigan bo'lsak, mazkur sabab yoki maqsadlarga zavqlanish uchun, shaxsiy qiziqish tufayli o'rganish va jamiyatda ishtirok etish kabilar kiradi. Ko'pgina yosh o'quvchilar endigina o'qishni boshlaganlarida asosan hikoyali matnlar (masalan, hikoyalar yoki suratli kitoblar) yoki o'quvchilarga o'zlarini o'rab turgan dunyo haqida axborot beruvchi va savollariga javob beruvchi ma'lumotlarga boy matnlarni o'qiydilar. Yosh o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirib, tadqiqotga ko'ra mazkur savodxonlik o'quvchilarning o'rganishlari uchun o'qishlari kerakligini talab qilgani tufayli kitob va boshqa bosma materiallardan ma'lumot olish uchun o'qish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Odatda o'qishdan ko'zlangan har qanday maqsad ma'lum turdagi matnlar bilan bog'liqlikka ega. Masalan, badiiy tajriba orttirish uchun o'qish odatda fantastik asarlarni mutolaa qilish bilan bog'langan, vaholanki axborotni olish va undan foydalanish ma'lumotga boy maqolalar va ko'rsatmaga oid matnlarni o'qish bilan amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, o'qishdan ko'zlangan maqsadlar alohida matn turi bilan cheklanib qolmaydi. Masalan, tarjimai hollar odatda axborot beruvchi yoki badiiy turkumga mansub material hisoblanadi, ammo ular o'qishdan ko'zlangan har ikkala maqsad xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. Matnlar tuzilishi va shakliga ko'ra, yozma materiallari tartib bilan joylashtirilgan matnlardan to tasvirli va jadvalli ma'lumotlar bilan to'ldirilgan qisqa so'zlar va iborali matnlargacha bo'lib, ular bir-biridan keskin farq qiladi. Ma'lum matn janriga xos bo'lgan mazmun, tarkib va uslub o'quvchiga matnni o'qib tushunishiga yaqindan yordam beradi. Badiiy kitoblarni o'qishda o'quvchilar voqealar, voqea joylari, obrazlar, oqibatlar, personajlar, asar muhiti, hissiyotlar va g'oyalar bilan yo'g'rilgan matnni o'qiydi va matn tilidan huzurlanadi. Adabiyotni tushunish va uni qadrlash uchun, har bir o'quvchi matnda (asarda) sodir bo'ladigan voqealar, hissiyotlar, tildan foydalanish san'ati hamda badiiy shakl haqida bilimni o'z hayolidan o'tkazishi kerak. Adabiyot yosh

o'quvchilar uchun o'zlari hali boshidan kechirmagan holatlar va hissiyotlarni kashf etish imkoniyatini beradi. Badiiy asarda tasvirlangan voqealar, harakatlar va hayoliy voqealar bo'lsada, o'quvchiga ular real hayotda sodir bo'layotgandek tasavvur uyg'otadi va o'quvchiga ularni hayolan boshidan kechirish imkonini beradi. Matn (yoki badiiy asar) hikoya qilib beruvchi yoki uning asosiy qahramonini kelajakda nima qilmoqchi ekanini bildirib turishi mumkin. Murakkabroq matnlar esa undanda ko'proq dunyoqarashni talab etishi yoki keskinliklarga ega bo'lishi mumkin. Matnning g'oyasi va undagi ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri yoki dialoglar va voqealar ko'rinishida tasvirlanadi. Qisqa hikoyalar yoki asarlarda odatda voqealar xronologik tartibda bayon qilinadi yoki asar voqealariga qaytish yoki vaqtni avvalga qaytarish orqali bayon qilinadi. Axborot beruvchi matnlar qator vazifalardan kelib chiqib yoziladi va o'qiladi. Binobarin, axborot beruvchi matnlarning asosiy vazifasi ma'lumot berishdan iborat bo'lgani sababli, odatda yozuvchilar o'zlari yortimoqchi bo'lgan mavzuga turli maqsad bilan yondoshadi. Ko'p axborot beruvchi matnlarda faktlar biror topshiriqni bajarish bosqichlari yoki biografik tafsilotlar kabi to'g'ridan-to'g'ri bayon etiladi. Shunga qaramasdan, ayrim axborot beruvchi matnlar subyektiv xususiyatga ega. Masalan, mualliflar izohlovchi mulohazalar, undash xususiyatli insholar toki puxta o'ylab chiqilgan mulohazalar orqali izohlar va faktlarni o'quvchiga yetkazib berishi mumkin. O'quvchi o'z dunyoqarashini shakllantirish uchun mazkur matnlarga tanqidiy yondashishi kerak. O'quvchi matnlarning maqsad va vazifalariga yaxshiroq tushunishi uchun undagi ma'lumotlar boshqacha tartibda, ya'ni uning mazmuni, tuzilishi va shakli o'zgartirilgan holda taqdim etilishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilari turli mavzularni qamrab olgan axborot beruvchi matnlarni, jumladan, ilmiy, tarixiy, jo'g'rofiy yoki ijtimoiy matnlarni o'qishlari mumkin. Bunday matnlar ham undagi o'quvchiga yetkazib berilishi kerak bo'lgan mazmun-mohiyatni ochiq berilishi nuqtai-nazaridan farqlanishi mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlash jarayoni zamonaviy ta'lim siyosatida eng dolzarb masalalardan biridir. Xalqaro baholash dasturlarida (PIRLS, PISA, EGRA, TIMSS) ishtirok etish O'zbekiston ta'lim tizimida mavjud kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, milliy va tarixiy tajribalarni zamonaviy ta'lim modellariga uyg'unlashtirish orqali o'qish savodxonligini oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. O'qituvchi uchun eng asosiy vazifa – o'quvchilarni o'qish jarayonining to'rt bosqichi (ma'lumotni topish, xulosa chiqarish, g'oyalarni talqin qilish, matnni baholash) bo'ylab yetaklab, ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodkorlikni rivojlantirishdir. Bu esa nafaqat o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshiradi, balki ularning shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmon, PF–60. 28.01.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror, PQ–4310. 29.04.2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Qaror, PQ–4884. 06.11.2020.
4. Anderson R. S. Millatni o'quvchiga aylantirish. – Vashington: Milliy ta'lim instituti, 1985.
5. Snow K. E. Tushunish uchun o'qish: Matnni anglashda tadqiqot va rivojlanish dasturi. – RAND korporatsiyasi, 2002.

6. OECD. PISA – Xalqaro talabalarni baholash dasturi natijalari – 2022. – Parij: OECD nashriyoti, 2023.
7. Mullis I. V. S., Martin M. O., Foy P., Drucker K. T. PIRLS 2021 – Xalqaro o'qish natijalari. – Boston: TIMSS va PIRLS Xalqaro tadqiqot markazi, 2022.
8. Qayumova Sh. T. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
9. Karimova S. E. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammolari. // Pedagogika jurnali. – Toshkent, 2020.
10. Raximova S. S. O'quvchilarda funksional savodxonlikni shakllantirishda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2022.
11. Bruner J. S. Actual Minds, Possible Worlds. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1986.
12. Vygotsky L. S. Thought and Language. – Cambridge, MA: MIT Press, 1987.
13. Cummins J. Language, Power and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. – Clevedon: Multilingual Matters, 2000.
14. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Literacy for All. – Paris: UNESCO Publishing, 2023.
15. Shodmonova D. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini takomillashtirish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
16. Nasriddinova Sh. O'quvchilarda matn bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
17. Mahkamova M. Y. O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o'qish metodikasining o'rni. – Farg'ona: FDU nashriyoti, 2020.
18. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA). PIRLS 2021 Assessment Framework. – Amsterdam: IEA, 2021.

NOFILOLOGIK YO'NALISHDAGI TALABALARGA CHET TILINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Achilova Risolat A'zamovna¹, Anvarova Umidabegim Ja'farovna²

¹Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d.;

²Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nofilologik yo'nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun chet tilini o'rgatishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari tahlil qilingan. Kommunikativ yondashuv, vazifa asosida o'qitish (task-based learning), teskari sinf (flipped classroom), AKT vositalari va gamifikatsiya metodlarining afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: nofilologik yo'nalish, chet tili, pedagogik texnologiya, kommunikativ yondashuv, AKT, gamifikatsiya.

Аннотация. В статье рассматриваются современные педагогические технологии обучения иностранному языку студентов нефилологических направлений.

Contents / Mundarija

1	Ibraimov Xolboy Ibragimovich. MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	4
2	Махмудов Абдулхалим Хамидович. МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ПРИМЕНЕНИЮ ОПТИМАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ ОБРАЗОВАНИЯ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ШКОЛЫ	8
3	R.G.Safarova. DUNYONING RIVOJLANGAN MAMLAKATLARIDA AMAL QILAYOTGAN TA'LIM-TARBIYANING OPTIMAL MODELLARI VA ULARDAN FOYDALANISH BO'YICHA TAVSIYALAR	12
4	Noha Assem Mohamed Moustafa. FROM TEACHER GROWTH TO STUDENT COMPETENCE: STRATEGIES FOR IMPLEMENTING OPTIMAL EDUCATIONAL MODELS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN	14
5	Атемова Калипа Турсуновна. СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ДУХОВНОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ КАК РЕЗУЛЬТАТ ПРИМЕНЕНИЯ ОПТИМАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ	19
6	Р.Х.Джурраев. ФОРМИРОВАНИЕ СИСТЕМНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ	24
7	Shukurullo Mardonov. PEDAGOGIK JARAYONNING YAXLITLIGI VA QONUNIYATLARI	28
8	O'tkir Qarshievich Tolipov, Saydaliyeva Farzona O'tkir qizi. TARBIYA TEXNOLOGIYALARI VA UNI TARBIYA JARAYONINI YORITISHDAGI ROLI	32
9	Karimov Komiljon Abduraximovich. UZLUKSIZ TA'LIMNING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOIIY-PEDAGOGIK ASOSLARI	35
10	Umarova H.U. TA'LIMI TIZIMI RAHBARLARINI UZLUKSIZ TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI	38
11	Medetova Raushan Mamadiyarovna, Ismailov Dosbol Tileberdiyevich. KURSANTLARNI MILLIIY RUHDA TARBIYALASHNING SAMARALI MODELLARINI QO'LLASH BO'YICHA XALQARO VA TARIXIY-MILLIY TAJRIBA	45
12	Азимова Машхурахон Ходжиевна. СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ТОЛЕРАНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У ОБУЧАЮЩИХСЯ КАК РЕЗУЛЬТАТ ПРИМЕНЕНИЯ ОПТИМАЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ ОБУЧЕНИЯ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ОБРАЗОВАНИЯ	48
13	Бичурина С.У. ОПТИМАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ И МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИХ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	53
14	Alimov Mirsardar Soatovich. UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM-TARBIYANING OPTIMAL MODELLARINI QO'LLASH ORQALI YOSHLARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH	55
15	Komilova Muyassar Mavjudovna. XORIJIY TILNI O'QITISH JARAYONIDA HARBIY-VATANPARVARLIK G'OYALARINI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA TAKLIF VA TAVSIYALAR	58
16	Fazilov Djamoliddin Kamolitdinovich. O'ZBEK OILALARIDA AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BOLANI TARBIYALASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	62
17	Малгайдарова Гүлсара Түрғанбайқызы. ТОЛЫҚ ЕМЕС ОТБАСЫНДА ТӘРБИЕЛЕНЕТІН ЖАСӨСПІМДЕРДЕГІ АГРЕССИЯНЫҢ ҚАЛЫПТАСУЫНДАҒЫ ӘЛЕУМЕТТІК-ПСИХОЛОГИЯЛЫҚ ФАКТОРЛАР	65
18	Malgaydarova Gulsara Turganbaevna. SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF AGGRESSION AMONG ADOLESCENTS RAISED IN SINGLE-PARENT FAMILIES	66
19	E.J.Kenesbaeva. O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL SOHALARINI RIVOJLANTIRISHDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI	70
20	Rabbimova Sarvinoz Jurabek qizi, I.E.Davronov. INKLYUZIV TA'LIMDA XALQARO TAJRIBALAR	73
21	Azimova Nilufar Nuriddinovna. MILLIY MADANIY YONDASHUV - TALABALARDA TASHABBUSKORLIKNI RIVOJLANTIRUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA	77
22	Kurbanov Ongarbay Xojanbergenovich. O'QUVCHILAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA GLOBAL MUAMMOLAR TAHLILNING TRANSFORMATSION AHAMIYATI	80
23	Shukur Po'latov. TA'LIM-TARBIYANI TASHKIL ETISHDAGI MUAMMOLAR VA UNING YECHIMLARI	82
24	Kurbanova Rita Jarasovna. ABU NASR FAROBIY MEROSIDA TA'LIM VA AXLOQIY TARBIYANING UYG'UNLIGI	87
25	Usmanova Zebo Baxtiyorovna. TA'LIM-TARBIYANING OPTIMAL MODELLARIDAN FOYDALANISHDA MEDIAMAHSULOTLARINING O'RNI	90
26	Pirjonov Sarvarbek Davlatovich. EMPATIYA TUSHUNCHASI EVOLUTSIYASI VA UNING TARBIYA JARAYONIDAGI AHAMIYATI	92

54	Qandimova Nasiba Ramazonovna. BOSHLAG'ICH SINFLARDA AXBOROT KOMPETENSIYASINI OPTIMAL TA'LIM TARBIYA MODELLARI VA KREATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	186
55	Toshmurodova Lola Qayum qizi. DIZARTRIYALI BOLALARNING TOVUSHLAR TALAFFUZIDAGI KAMCHILIKLARINI O'YIN TEXNANOLOGIYALARI ASOSIDA BARTARAF ETISH	188
56	Tillayeva Zebo Yerbekovna. TABIIY FANLARNI O'QITISHDA “JONLI VA JONSIZ TABIAT” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH ORQALI O'QUVCHILARNI TARBIYALASH	192
57	Shoabdullayeva Zulfiya Shoraxim qizi. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA FONETIK-FONEMATIK NUTQ BUZILISHLARINI BARTARAF ETISH METODIKASI	196
58	Seyfullaev Allanazar Skenderbekovich. IMITATSION O'YINLAR HARAKATLI O'QITISH METODI	201
59	Xudoyorova Mavluda Sayfulla qizi. NUTQ NUQSONLARI BO'LGAN BOLALARNI QO'LLAB-QUVVATLASHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH: XALQARO TAJRIBA TAHLILI	203
60	Komilova Umida To'ra qizi. ART-TERAPIYADAN FOYDALANGAN HOLDA MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI TARBIYALASH	209
61	Bozorova Matluba Aminovna. DARS JARAYONIDA ADABIY VA TARIXIY ALLYUZIYALAR ORQALI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR VA TAQQOSLASH, TARBIYA KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	215
62	Yahyoyeva Mohinabonu. EUPHEMISMS AND VERBAL ETIQUETTE IN ENGLISH AS A MEANS OF LANGUAGE-BASED MORAL EDUCATION	218
63	Burxonova Sarvinov Azizbek qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARDA ISHONCHLI VA TA'SIRCHAN NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH	220
64	To'ymurodova Nilufar Ismoil qizi. BOSHLAG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA NUTQIY ETIKETNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	223
65	Gauxar Kudiyarova. TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	226
66	Musayev Jahongir Payazovich, Arabboev Asliddin Rafiqjon o'g'li. GEOGRAFIYA DARSLARIDA RAQAMLI TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AMALIYOTI	228
67	Berdikulova Charos Alikulovna. NUTQIDA NUQSONI BOR BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI MODELLARI, ULARNI QO'LLASHGA OID XALQARO HAMDA TARIXIY-MILLIY TAJRIBA	234
68	Saliyeva Perdexan Alimbetovna. BOSHLAG'ICH TA'LIMDA ILG'OR ZAMONAVIY TAJRIBALARNING QO'LLANILISHIDA ILMIY VA AMALIY MASALALARNING AHAMIYATI	237
69	Abdullayeva Umida Qahramonovna. KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARNI OMMAVIY MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH YO'NALISHLARI	241
70	Turdaliev Shahlo Husniddinovna. OG'IR NUTQ NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA DASTLABKI O'QISHNI O'RGATISH TEXNOLOGIYASI	245
71	Hasanova Gulnoz Qosimovna. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDAGI OPTIMAL MODELLAR: MAKTABGACHA TA'LIMDA MOBIL ILOVALAR VA INTERAKTIV METODLAR	249
72	Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna, Sagdiyeva Roziya Sunatulloevna. NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	253
73	Safarova Kamola Shuxrat qizi. UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH	256
74	Rashidova Gulbaxor Gadayevna. TA'LIM-TARBIYANING OPTIMAL MODELLARI: XALQARO VA TARIXIY TAJRIBALARI, MUAMMOLAR, YECHIMLAR	259
75	Sayfiddinova Nulufar Alisherovna. MATEMATIKA VA IQTISODIY TARBIYA: O'QUVCHILARDA AMALIY HAYOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	261
76	Mahmudov Jamshid Farruxjon o'g'li. ELEKTRON TA'LIM MUHITINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI (KIMYO FANIDAN MASALALAR YECHISH METODIKASI FANI MISOLIDA)	263
77	Jumanova Ozoda Eshpo'lat qizi. BIRINCHI SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHNING XORIJIY VA TARIXIY TAJRIBALARI HAMDA HOZIRGI KUNDAGI OPTIMAL MODELLARI	267
78	Salimova Ozoda Yusupovna. O'QUVCHILAR TARBIYASIDA OILA, MAHALLA, MAKTAB HAMKORLIGINI TARG'IB ETISH	270
79	Masharipova Nasiba Ro'zmatovna. O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY VA XORIJIY TA'LIM MODELLARI	272
80	Sharifzoda Sardor O'razboy tabib o'g'li. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING GENDER KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING TA'LIMIY MODELLARI	278
81	Boymanova Muxlisa Ismoil qizi. TALIS XALQARO BAHOLASH DASTURI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	282
82	Qayumova Shoxsanam To'liqin qizi. BO'LAJAK BOSHLAG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI	285

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIMI VAZIRLIGI**

**QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY
INSTITUTI**

**“TA’LIM-TARBIYANING OPTIMAL MODELLARI: XALQARO
HAMDA TARIXIY TAJRIBALAR, MUAMMOLAR, YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
30-31-OKTABR, 2025-YIL**

**OPTIMAL MODELS OF EDUCATION: INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “INTERNATIONAL
AND HISTORICAL EXPERIENCE, PROBLEMS, SOLUTIONS”
OCTOBER 30-31, 2025**

**ОПТИМАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ ОБРАЗОВАНИЯ:
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ “МЕЖДУНАРОДНЫЙ И ИСТОРИЧЕСКИЙ
ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ”
30-31 ОКТЯБРЯ 2025 ГОДА**

Published: 30.10.2025. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»

License Mass Media №:1597 27.04.2022

License Publisher №:038864 15.09.2022

Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,

Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2

www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998933549654, +998993319654